

JADIDCHILARNING TA'LIM VA TARBIYAGA QO'SHGAN HISSALARI

Tolibova Muhabbat Mirzoqulovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali magistranti

E-mail: muhabbattolibova2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning asosiy maqsad va vazifalari hamda Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Jadidlarning yosh avlodni ma'rifatli, ongli, mustaqil fikrlovchi va milliy g'urur ruhida tarbiyalash yo'lida olib borgan faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, yangi usul maktablarining tashkil etilishi, o'quv dasturlari, ta'lim jarayoniga zamonaviy fanlarning kiritilishi hamda jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari ochib berilgan. Maqolada jadidchilik harakatining bugungi ta'lim tizimi rivojidadagi ahamiyati ham asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, uyg'onish davri, ta'lim islohoti, yangi usul maktablari, komil inson, milliy ong.

ВКЛАД ДЖАДИДОВ В ОБРАЗОВАНИЕ И ВОСПИТАНИЕ

Аннотация: В данной статье научно-теоретически освещается процесс становления джадидского движения, его цели и задачи, а также его роль в реформировании системы образования и воспитания в Туркестане. Анализируется деятельность джадидов, направленная на формирование образованного, сознательного и духовно развитого молодого поколения. Рассматриваются вопросы организации школ нового типа, учебных программ и внедрения современных знаний. Также раскрывается значение педагогических идей джадидов в развитии современной образовательной системы.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, период национального пробуждения, образовательные реформы, школы нового метода, духовность, совершенная личность.

THE CONTRIBUTION OF JADIDS TO EDUCATION AND UPBRINGING

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the emergence of the Jadid movement, its main goals, and its significant role in reforming the educational and moral upbringing system in Turkestan. The activities of the Jadids aimed at educating an enlightened, intellectually mature, and nationally conscious younger generation are examined. Particular attention is given to the establishment of new-method schools, curriculum reforms, and the integration of modern sciences into education. The article also highlights the importance of Jadid pedagogical ideas in the development of the contemporary education system.

Keywords: Jadidism, enlightenment movement, national awakening, educational reform, new-method schools, moral education, perfect individual.

Bugungi kunda mamlakatimiz erishayotgan taraqqiyot va yutuqlarning zamirida tarixiy ildizlar, xususan, milliy uygʻonish davrida xalqimiz ravnaqi uchun fidokorona xizmat qilgan jadid bobolarimizning beqiyos hissasi mujassamdir. Jadidlar nafaqat siyosiy mustaqillik gʻoyasini ilgari surgan, balki jamiyatni maʼnaviy va maʼrifiy jihatdan yuksaltirishni ham oʻz oldilariga asosiy maqsad qilib qoʻyganlar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston oʻlkasida vujudga kelgan jadidchilik harakati 1865–1929-yillar oraligʻida milliy-maʼrifiy uygʻonishning muhim bosqichi sifatida namoyon boʻldi. Jadidlar jamiyatni rivojlantirishning eng samarali yoʻli taʼlim va tarbiya ekanligini chuqur anglab, eski usul maktablar oʻrniga yangi usuldagi, zamonaviy bilimlarga asoslangan maktablar tashkil etishga kirishdilar.

Abdurauf Fitratning quyidagi misralari jadidlarning ogʻir tarixiy sharoitda olib borgan maʼnaviy kurashini yaqqol aks ettiradi:

- “Yoruqsiz tumanlarda yotganda,
- Yirtgʻuchi jandarmning tepgusi bilan yiqilgʻanda,
- Yurtlarimiz yondurulgʻanda, dindoshlarimiz osilgʻanda
- Ongimiz yoʻqoldi, miyamiz buzildi, koʻzimiz yogʻdusiz qoldi...”

Ushbu satrlar jadidlarning nega maʼrifatni qurol sifatida tanlaganini anglashga yordam beradi. Ular qurol bilan emas, balki bilim, ong va maʼnaviyat orqali millatni ozodlikka yetaklash mumkinligiga ishonganlar.

Jadidlar tomonidan ochilgan yangi usul maktablari taʼlim tizimida tub burilish yasadi. Bu maktablarda ona tili, matematika, geografiya, tarix, tabiiyot fanlari, hatto chet tillarini oʻqitish yoʻlga qoʻyildi. Taʼlim jarayoni sinf-dars tizimi asosida tashkil etilib, oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga oʻrgatishga alohida eʼtibor qaratildi.

Xorazm xonligida tatar ziyolilari Tavfiq Bikkulin va Yusuf Ahmadovlar koʻmagida tashkil etilgan jadid maktablari dastlab xon va amaldorlar farzandlari uchun moʻljallangan boʻlsa-da, keyinchalik keng omma uchun ochildi. 1906–1907-oʻquv yilida Urganch shahrida qizlar uchun maktab ochilishi jadidlarning ayollar taʼlimiga ham katta eʼtibor qaratganidan dalolat beradi.

Maxmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadidlar pedagogik qarashlari orqali “komil inson” gʻoyasini ilgari surdilar. Ularning fikricha, komil inson — bu bilimli, vatanparvar, axloqan pok va jamiyat taqdiriga befarq boʻlmagan shaxsdir. “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat aspobigʻa tasavvul(vosita)va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi ,bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzilida boʻlgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi boʻlgan milliy matbuot qayrotlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keladi”. 3 Marifatparvar jadidlarimiz “Taraqqiyot” gazetasida maktab dasturiga alohida eʼtibor berib oʻsha dasturlarga koʻra boshlangʻich maktab 4-sinf dan tashkil etilishi va 7 yoshdan kichik bolalar qabul qilinmasligi aytib oʻtilgan.Ushbu dasturda

qanday fanlar o'qitilishi hamdamaktabning tashkiliy tomonlari ham aniq ko'rsatilib o'tilgan edi. Yani yilda to'qqiz oy taxsil, uch oy ta'til bo'lishi haqida, maktab avgustning 15-sanasidan 1-sentyabrigacha qabul qilinishi, 15-maqda imtihon bo'lishi ham aytib o'tilgan. Yana ushbu dasturda bayram kunlari bir kun dam olish bo'lishi, maktab yili boshlangach maktabga qabul to'xtatilishi ham aytib o'tilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkiston xalqlari, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida beqiyos o'rin tutadi. Jadidlar ta'lim va tarbiyani jamiyat rivojining asosiy omili sifatida ko'rib, milliy ong va tafakkurni shakllantirishga xizmat qildilar. Ularning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik faoliyati bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda jadidlar ilgari surgan g'oyalar — bilimlilik, vatanparvarlik, ma'naviyat va barkamollik tamoyillari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu bois jadid bobolarimizning boy merosini chuqur o'rganish va yosh avlod ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fitrat A. Yurt qayg'usi. Jadid adabiyoti namoyondalari asarlari. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 108–109.
5. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi // Xalq va demokratiya. – 1992. – № 3–4.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Qosimov B. Jadidchilik harakati va milliy uyg'onish. – Toshkent: Fan, 2004.
8. Boboxonov A. O'zbek ma'rifatparvarlik harakati tarixi. – Toshkent: Universitet, 2010.
9. Ismoilov S. Turkistonda jadid maktablari va ta'lim islohotlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
10. Yo'ldoshev J. Pedagogik tafakkur taraqqiyoti tarixidan. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.